



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI BOSHQARISHDA BIZNES-KOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

*Namangan davlat texnika universiteti
“Menejment” kafedrasida dotsenti, i.f.n.*

Alijanov Baxtiyor Baxodirjon o‘g‘li

*Namangan davlat texnika universiteti
“Menejment” yo‘nalishi magistri*


Annotatsiya: Maqolada hududiy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlarini boshqarish tizimining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga egaligi bayon etilgan. Unda biznes-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishning mazmuni va Namangan viloyatida bu sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritib o‘tilgan. Shuningdek sohani rivojlanishida to‘siq bo‘luvchi ayrim muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Soha samaradorligini oshirish va undagi bir qator muammolarni bartaraf etish uchun tegishli takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik subyektlarini boshqarish, aholi farovonligini oshirish, biznes-kommunikatsiya infratuzilmasi, ichki bozor kon‘yunkturasi, erkin savdo zonasi imkoniyatlari, bojxona imtiyozlari, hududiy eksport diversifikatsiyasi, bozorlar qamrovi, iqtisodiy samaradorlik, tarmoqlar ixtisoslashuvi.

Аннотация: В статье рассматривается решающее значение эффективности системы управления хозяйствующими субъектами для устойчивого развития региональной экономики и повышения благосостояния населения. Освещается содержание развития инфраструктуры деловой коммуникации и меры, принимаемые в этой области в Наманганской области. Также выявляются некоторые проблемы, препятствующие развитию сектора. Предлагаются соответствующие меры по повышению эффективности сектора и устранению ряда проблем в нем.

Ключевые слова: управление хозяйствующими субъектами, повышение благосостояния населения, инфраструктура деловой коммуникации, условия внутреннего рынка, возможности зон свободной торговли, таможенные льготы, диверсификация регионального экспорта, охват рынка, экономическая эффективность, отраслевая специализация.

Abstract: The article describes the crucial importance of the efficiency of the business entity management system in the sustainable development of the regional economy and increasing the well-being of the population. It highlights the content of the development of business communication infrastructure and measures being taken in this area in the Namangan region. It also identifies some problems that hinder the development of the sector. Relevant proposals are made to improve the efficiency of the sector and eliminate a number of problems in it.



Keywords: business entity management, increasing the well-being of the population, business communication infrastructure, domestic market conditions, free trade zone opportunities, customs privileges, regional export diversification, market coverage, economic efficiency, industry specialization.

Kirish. Jamiyat hayotida barcha faoliyat sohalari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda rivojlanadi. Biroq jamiyat rivojlanishining dinamikasi, uning asosiy shart-sharoitlari hamda umuman jamiyat va alohida har bir fuqaroning turmush darajasi, avvalo, iqtisodiyot bilan belgilanadi. Ko‘plab davlatlarning iqtisodiy tarixining muhim tarkibiy qismi tadbirkorlar faoliyati tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan tadbirkorlarning bir necha avlodlar davomida olib borgan qat’iyatli va uzluksiz faoliyati ushbu mamlakatlar iqtisodiy qudratining asoslarini yaratib, ularning jahon hamjamiyatidagi o‘rnini belgilab berdi.

Ko‘plab mamlakatlarda qabul qilingan ilmiy va amaliy yondashuvlarga ko‘ra, tadbirkorlik – bu innovatsion loyihalarni yaratish, tashkil etish va amalga oshirishga qaratilgan inson faoliyatining alohida turidir. U odatda, yangi g‘oyalarni hayotga tatbiq etish yoki mavjud faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan tashabbus va harakatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Mazkur jarayonda asosiy rol tadbirkorlarga tegishli bo‘lib, ular moliyaviy mablag‘lar, moddiy resurslar hamda ishchi kuchini birlashtirgan holda yangi biznes faoliyatini yaratadilar va uni samarali boshqaradilar.

Asosiy qism. Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlarini boshqarish tizimining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Namangan viloyati ham o‘zining qadimiy savdo an‘analari, rivojlangan hunarmandchiligi va to‘qimachilik klasterlari bilan respublika iqtisodiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega.

Bugungi kunda viloyatda tadbirkorlikni boshqarish tizimi vertikal va gorizontal tuzilmaga ega bo‘lib, u bevosita mahalliy davlat hokimiyati organlari, ixtisoslashgan agentliklar va jamoat tashkilotlari hamkorligiga tayanadi. Amaldagi tartibga solish mexanizmi tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatga olishdan boshlab, ularni infratuzilma bilan ta‘minlash, yer maydonlari ajratish va moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini huquqiy jihatdan kafolatlashni o‘z ichiga oladi.

Viloyatda tadbirkorlikni boshqarish mexanizmi prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan *“Namangan — tadbirkorlar yurti”* strategik kontseptsiyasi doirasida amalga oshirilmoqda. Mahalliy boshqaruv organlarining asosiy vazifasi hududiy iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish va yangi “o‘shish nuqtalari”ni ishga solish orqali tadbirkorlik muhitini institutsional jihatdan tartibga solishdan iboratdir.

Namangan viloyatida tadbirkorlikni boshqarish mexanizmining o‘ziga xos jihati — hududning tashqi iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiluvchi biznes-kommunikatsiya infratuzilmasining tizimli rivojlantirilayotganligidadir. Namangan viloyatida tadbirkorlikni boshqarish mexanizmida tashqi iqtisodiy aloqalarning o‘rni va transchegaraviy integratsiyasi shuni ko‘rsatadiki, viloyatning zamonaviy taraqqiyot bosqichida tadbirkorlik subyektlarini

boshqarish mexanizmi faqatgina ichki bozor kon'yunkturasi bilan cheklanmay, balki tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) diversifikatsiya qilishga yo'naltirilgan strategiyaga asoslanmoqda [3]. Bu borada Afg'oniston Islom Respublikasi bilan o'rnatilayotgan ko'p qirrali hamkorlik aloqalari viloyat iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar darvozasini ochmoqda. 2026-yilning mart va aprel oylarida viloyat hokimligi boshchiligidagi delegatsiyaning Afg'onistonga tashrifi hududiy boshqaruv tizimida "davlat — tadbirkor — tashqi bozor" zanjirini mustahkamlashga xizmat qildi.

Viloyatda tadbirkorlikni boshqarish mexanizmining eng muhim institutsional yangiligi sifatida Mozori Sharif shahrida Namangan viloyati hokimligining vakolatxonasi ochilishini ko'rsatish mumkin. Ushbu vakolatxona shunchaki ma'muriy tuzilma emas, balki tadbirkorlar uchun axborot-resurs markazi bo'lib, u yerda bozor talablarini o'rganish, mahsulotlarni sertifikatlash va logistika masalalarini tezkor hal etish mexanizmi yo'lga qo'yildi. Bunday yondashuv kichik va o'rta biznes subyektlarining tashqi bozordagi xatarlarini kamaytirishga va ularning eksport faoliyatini tizimli boshqarishga imkon beradi.

Afg'oniston bozoriga kirishda "AIRITOM Free Zone" erkin savdo zonasi imkoniyatlaridan foydalanish boshqaruvning logistik samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Namanganlik tadbirkorlar uchun Termiz shahridagi ushbu hudud orqali vizasiz rejim va bojxona imtiyozlari asosida savdo qilish mexanizmi joriy etildi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarning mahsulot tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zargarlik, to'qimachilik va qurilish materiallari sohasidagi korxonalar uchun bu mexanizm asosiy drayver bo'lib xizmat qilmoqda.

Namangan viloyatining iqtisodiy boshqaruv tizimida "qo'shni davlatlar bozoriga integratsiyalashuv" strategiyasi ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro miqyosdagi tadbirlar viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish mexanizmining ajralmas qismi hisoblanadi. Viloyat tadbirkorlarining eksport salohiyatini oshirish maqsadida "Made in Uzbekistan" brendi ostida Iroq, Turkiya, Ozarbayjon va Rossiya kabi davlatlarda o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlarda Namangan mahsulotlarining keng namoyish etilishi boshqaruv mexanizmining tashqi bozorlarga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Ayniqsa, tashqi bozori uchun an'anaviy hisoblangan to'qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari, yengil sanoat va mashinasozlik yo'nalishlaridagi yangi kelishuvlar hududiy eksport diversifikatsiyasini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

1-jadval

Namangan viloyati tadbirkorlik subyektlarining xalqaro ko'rgazmalardagi ishtiroki va eksport yo'nalishlari (2025-2026 yy.)

Tadbir nomi va o'tkazilgan joyi	Ishtirokchilar va qamrov doirasi	Boshqaruv mexanizmidagi strategik yo'nalishi
"Baghdad International Fair" (Iroq)	Namangandan 20 dan ortiq korxonalar ishtiroki	Yaqin Sharq bozorida to'qimachilik va qurilish

		materiallari eksportini kengaytirish
"International Istanbul Yarn Fair" (Turkiya)	Yuqori sifatli ip-kalava va to'qimachilik mahsulotlari	Yevropa va Turkiya bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati
"TextileExpo Uzbekistan" va Moskva shourumi	Namangan to'qimachilik klasterlari	Rossiya va Markaziy Osiyo bozorlarida doimiy savdo maydonlarini yaratish
"Made in Uzbekistan" (Ozarbayjon)	To'qimachilik va tayyor kiyim-kechak sohasi	Ozarbayjonning 1 mlrd dollarlik to'qimachilik bozorida viloyat ulushini oshirish

Namangan viloyati tadbirkorlarining xalqaro ko'rgazmalardagi faol ishtiroki tahlili shuni ko'rsatadiki, hududiy boshqaruv mexanizmida "tashqi bozorlar diversifikatsiyasi" ustuvor vazifaga aylangan:

- *bozorlar qamrovi*: Afg'oniston bilan an'anaviy aloqalarni saqlab qolgan holda, Iroq va Ozarbayjon kabi yangi bozorlarga chiqish strategiyasi viloyatning eksport barqarorligini ta'minlaydi;


- *tarmoqlar ixtisoslashuvi*: xalqaro maydonda asosiy urg'u viloyatning drayver sohasi bo'lgan to'qimachilikka qaratilgan bo'lsa-da, Iroqdagi ko'rgazmada mashinasozlik va metallurgiya kabi yo'nalishlarning taqdim etilishi sanoat boshqaruvining yangi qirralarini ochadi;

- *iqtisodiy samaradorlik*: Turkiya va Rossiyada tashkil etilayotgan shourumlar va milliy stendlar tadbirkorlar uchun vositachilarsiz, to'g'ridan-to'g'ri eksport shartnomalarini imzolash va xalqaro brendlar bilan raqobatlashish uchun platforma bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini ravnaq topishida ahamiyatli bo'lgan boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish va qo'llash, uning ijobiy natijalariga ega bo'lish asosiy vazifalar qatoridan o'rin olgan.

Umumiy qilib aytganda, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning bunday majmuaviy yondashuvi Namangan viloyatining tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta'minlash va tadbirkorlik subyektlarining xalqaro miqyosda tan olinishiga mustahkam zamin yaratadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida makroko'lamda tadbirkorlik sub'ektlarini boshqarish mexanizmi bir qator institutsional va funktsional muammolar bilan xarakterlanadi. Tadqiqotlar doirasida aniqlangan asosiy muammolar quyidagilardan iborat: boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot asimmetriyasi va kommunikatsiya tanqisligi (tadbirkorlik faoliyatida axborotlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, boshqaruv jarayonida sifatli va tezkor ma'lumotlar almashinuvining yo'qligi qarorlar samaradorligini pasaytiradi) [3]; ayniqsa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning



murakkablashuvi boshqaruvning an'anaviy usullari va zamonaviy talablar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda [1, 2]. Strategik boshqaruv va maqsadlarni belgilashdagi noaniqliklar (ko'p hollarda tadbirkorlik sub'ektlarida boshqaruv jarayoni maqsadlariga qo'yiladigan talablarning to'liq anglab yetilmasligi va strategik yo'nalishlarning ilmiy asoslanmagani kuzatiladi) [6, 8]; boshqaruv strategiyasini shakllantirish usullarining yetarlicha tadbiriq etilmasligi korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [9]. Eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvatlashdagi institutsional to'siqlar (tashqi iqtisodiy faoliyatda eksportyor korxonalarini rag'batlantirish va ularning muammolarini bartaraf etishda hamon byurokratik va moliyaviy qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda [10], bu jarayonda boshqaruv funktsiyalarini turkumlash va ularni aniq sohalarga yo'naltirish mexanizmi tizimli rivojlanmagan [7]. Yoshlar tadbirkorligi va ijtimoiy tadbirkorlik uchun muhitning nomutanosibliigi (yangi avlod tadbirkorlarini boshqaruv jarayoniga jalb qilishda ijobiy muhitni shakllantirish va iqtisodiyotni tartibga solish usullarining yetarli darajada moslashtirilmagani rivojlanish sur'atlarini cheklamoqda)[4, 5].

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda biznes-kommunikatsiya infratuzilmasi sohadagi ayrim muammolar sohani samarali rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan: biznes-kommunikatsiya infratuzilmasining tizimli rivojlanishni pastligi ayrim institutsional muammolarni keltirib chiqarishi; nazorat tadbirlarining shaffofligini ta'minlovchi raqamli kommunikatsiya vositalari (bodi-kameralar) tizimining hali to'liq amaliyotga kiritilmaganligining tadbirkorlik muhitida ma'muriy to'siqlarning saqlanib qolishiga sabab bo'lishi; eksport salohiyatini oshirishda tashqi iqtisodiy kommunikatsiyalar va servis infratuzilmasining yetarli emasligi; tadbirkorlarning xorijiy investorlar va xalqaro bozorlar bilan axborot almashinuvini ta'minlovchi markazlashtirilgan "Yagona media platforma"ning mavjud emasligi hududning investitsion jozibadorligini targ'ib qilish samaradorligini pasaytirishi; mehnat resurslarini tayyorlash standartlarining xalqaro bozor talablariga masalan Yevropa Ittifoqi va Yaqin Sharq standartlariga moslashmagani, mahalliy kadrlarning global iqtisodiy zanjirlarga integratsiyalashuvida kommunikatsion to'siqlarni keltirib chiqarishi; kadastr va yer munosabatlaridagi institutsional muhitning murakkabligi, ishlab chiqarish infratuzilmasining energiya resurslari ta'minotidagi muammolarni sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Hududlarda tadbirkorlik faoliyatini boshqarish samaradorligi bevosita hududlardagi infratuzilmalarni rivojlantirish jarayonlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda hududlarning iqtisodiy rivojlanishi biznes-kommunikatsiya infratuzilmasining tizimli rivojlanishi muammolarini bartaraf etish va sohani samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni taklif etamiz: tadbirkorlik subyektlarida o'tkaziladigan barcha nazorat tadbirlarini bodi-kameralar va onlayn translyatsiya tizimi orqali qayd etishni to'liq yo'lga qo'yish (bu tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvlarni kamaytirish bilan bir qatorda, boshqaruv tizimida shaffof biznes-kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi); hududlarda "Yagona investitsion-media platformasi"ni tashkil etish (bunda hududning investitsion loyihalari, turistik salohiyati va eksportyor korxonalarini haqidagi

ma'lumotlar mavjud bo'lgan chet tillarida yuritiladigan markazlashgan platforma yaratish lozim, ushbu resurs biznes-kommunikatsiya infratuzilmasining muhim elementi sifatida elchixonalar va xalqaro biznes missiyalar uchun asosiy axborot manbai bo'lib xizmat qiladi); idoraviy ma'lumotlar almashinuvini kadastr, soliq va bank tizimlari o'rtasidagi axborot almashinuvida inson omilini istisno qiluvchi avtomatik integratsiya mexanizmini joriy etish (bu tadbirkorlarning yer va mulk solig'i bilan bog'liq asossiz nizolarini institutsional darajada bartaraf etadi) va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Эргашева, Ф. И. (2023). ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ЖАРАЁНИДА БОШҚАРУВНИНГ АСОСИЙ МАСАЛАЛАРИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

2. Эргашева, Ф. И. (2023). БОШҚАРУВ ЖАРАЁНИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: МУММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"*, 14(1).

3. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"*, 14(1).

4. Эргашева, Ф. И. (2023). ЁШЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЖОБИЙ МУҲИТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"*, 14(1).

5. Nabijanovich, D. B. (2023). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA BOSHQARUVNI TARTIBGA SOLISH USULLARI. *NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"*, 14(1).

6. Nabijanovich, D. B. (2023). BOSHQARUV JARAYONI MAQSADLARI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *NIDERLAND" INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"*, 14(1).

7. Nabijanovich, D. B., & Axadbek o'g'li, R. A. (2023, May). BOSHQARUVNING UMUMIY VA ANIQ FUNKTSIYALARI: MOHIYATI VA TURKUMLASH MEZONLARI. In " *CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES* (Vol. 9, No. 1).

8. Nabijanovich, D. B. (2023, May). STRATEGIYA VA STRATEGIK BOSHQARISH: ILMIY YONDASHUVLAR VA XUSUSIYATLAR. In " *CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES* (Vol. 9, No. 1).

9. Nabijanovich, D. B. (2023, May). TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARUV

STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. In " USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE (Vol. 8, No. 1).

10. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019.

[https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)